



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbiarmon” MChJ

Hamkorlarimi z: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalarda tizimidagi o‘rni	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati	101
Xolmatova Dilshoda Sherali qizi	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna	

“SO‘NGGI JADID” BEGALI QOSIMOVNING ILMIY-PEDAGOGIK MEROSI

Toxirova Dilshoda Inom qizi

Fan va texnologiyalari universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Fan va texnologiyalar universiteti
Yoshlar masalalari va ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori,
p.f.b.f.d. (PhD), dotsent **F.Tursunov** taqrizi ostida

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Begali Qosimovning hayoti, ijodi, ilmiy-pedagogik faoliyati, adabiyotshunoslik sohasidagi asosiy ilmiy qarashlari hamda ta'lim tizimi va jadidchilik merosi rivojiga qo'shgan hissasi yoritilgan. Shuningdek, olim asarlarining tarbiyaviy ahamiyati, mumtoz adabiyot va milliy uyg'onish davri adabiyoti bo'yicha olib borgan tadqiqotlari, o'quv-uslubiy ishlari hamda ilmiy maktabning shakllanish jarayoni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jadid, renessans, uyg'onish, panislomizm, panturkizm, matnshunoslik, tarjima.

Abstract: This article explores the life, scholarly legacy, scientific and pedagogical activities of Professor Begali Kasimov, Doctor of Philology and Honored Scholar of the Republic of Uzbekistan. The study examines his major contributions to literary criticism, the development of the educational system, and the preservation and promotion of Jadid heritage. Particular attention is paid to the educational significance of his works, his research on classical literature and the literature of the National Renaissance period, his methodological contributions, and the formation of his scientific school.

Key words: Jadidism, Renaissance, revival, Pan-Islamism, Pan-Turkism, textual studies, translation.

Аннотация: В данной статье освещаются жизнь, творчество, научно-педагогическая деятельность, основные научные взгляды в области литературоведения и вклад в развитие системы образования и наследия джадидизма выдающегося учёного Республики Узбекистан, доктора филологических наук, профессора Бегали Касимова. Также рассматриваются воспитательное значение его трудов, исследования в области классической литературы и литературы периода национального возрождения, учебно-методическая деятельность и процесс формирования его научной школы.

Ключевые слова: джадидизм, ренессанс, возрождение, панисламизм, пантюркизм, текстология, перевод.

KIRISH

Ramziy ma'noda “so'nggi jadid” sifatida e'zozlangan Begali Qosimov o'zbek adabiyotshunosligida mustaqil ilmiy maktab yaratgan, mumtoz va milliy uyg'onish davri adabiyotini chuqur o'rganishga katta hissa qo'shgan, ilmiy-pedagogik faoliyati orqali namuna bo'la oladigan olimlardan biridir. Uning ilmiy merosi ko'plab monografiyalar, darsliklar, risolalar va 300 dan ziyod ilmiy maqolalarda aks etgan. Muallif hayoti, pedagogik faoliyati va ijodini tizimli ravishda tadqiq etish, uning ilmiy-metodik yondashuvlarini yoritib berishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Begali Qosimovning 30 ga yaqin kitobi va 300 dan ortiq ilmiy maqolalari e'lon qilingan. Olim ilmiy tadqiqotlarida o'zbek mumtoz adabiyoti va adabiy aloqalari, o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi, xususan, matnshunoslik, jadidchilik hamda jadid adabiyotini o'rganish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Olim XX asr o'zbek adabiyoti muammolari va shu davr namoyandalari haqida “Mirmuhsin Shermuhamedov” (1967), “Abdulla Avloniy” (1979), U. Dolimov bilan hamkorlikda “Ma'rifat darg'alari” (1990), “Ismoilbek Gasprali” (1992) kabi asarlarni yaratgan.

Begali Qosimov, shuningdek, Yassaviy, Navoiy va Bobur haqida ham ilmiy tadqiqotlar olib borgan. U “O'zbek adabiyoti” (5-, 7-, 9-, 11-sinflar uchun), “Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti” (bakalavrlar uchun) kabi darsliklarning ham muallifidir.



Ustoz Begali Qosimov jadid mutafakkirlarining an'alarini o'z faoliyatida davom ettirgan fidoyi olim edi. U jadidchilik harakatini keng ko'lamda, uning omillari, yo'l boshchilari, asosiy g'oyalari, geografik ko'lami va mashhur namoyandalari bilan birgalikda tadqiq etib, boy va jiddiy o'rganishga loyiq ilmiy meros qoldirdi.

Sivilizatsiya tarixida "Renessans" degan tushuncha mavjud. Asli fransuzcha bo'lgan bu so'zni rus tiliga "Vozrojdeniye" deb tarjima qiladilar. "Vozrojdeniye" - tiklanish ma'nosiga to'g'ri keladi. O'zbek tilida esa bu tushuncha "Uyg'onish" deb qabul qilingan. Renessans - Vozrojdeniye G'arbda insoniyat tarixining mumtoz davri hisoblangan qadimgi yunon va rim madaniyatiga - antik madaniyatga nisbatan qo'llanilib, butun bir davrni qamrab oladi. Uning chegaralarini Sharqda IX-X asrlar, G'arbda esa XIV-XV asrlar bilan belgilaydilar. Muta-xassislar fikricha, uning asosiy xususiyatlari shahar madaniyatining gurkirab rivojlanishi, ilm va ijod ahliga xos qomusiylik hamda gumanizmning ijtimoiy-ma'naviy hayotning barcha jabhalariga kirib borishi bilan izohlanadi.

1789-yilgi Buyuk Fransuz inqilobi Yevropada millat tushunchasiga alohida mavqe berdi va uni oldingi saflarga olib chiqdi. Yevropa xalqlari Vatan taraqqiyotining bosh omili millatning o'z-o'zini anglashi ekanligini tushunib yetdilar. Bu jarayonning olis Turkistonga yetib kelishi uchun yuz yildan ortiqroq vaqt talab qilindi. Keksa Demokrit bundan 2500 yil muqaddam "har bir mamlakatning yagona sohibi" - "millat" haqida fikr yuritgani ma'lum. Keyinchalik "nation" tushunchasining muqobili bo'lgan "millat" atamasi Qur'oni karimda ham uchraydi. Biroq u yerda bu atama etnos (el, elat) ma'nosida emas, din va mazhab ma'nosida qo'llanilgan. O'zbek adabiyoti-da "millat" tushunchasining etnos ma'nosida Navoiydan boshlab ishlatilgani kuzatiladi. Ammo uning bugungi mazmun kasb etishi jadidchilik davri bilan bog'liq.

Endi "jadidchilik" atamasi haqida. "Jadidchilik" arabcha "jadid" ("yangi") so'zidan olingan bo'lib, keng ma'noda ijtimoiy-ma'naviy hayotning barcha jabhalarini yangilashni anglatadi. Jadidchilik Turkiston ijtimoiy fikri taraqqiyotida, Fitrat qayd etganidek, islomchilik (panislomizm), turkchilik (panturkizm) va mahalliychilik (o'zbekchilik) ko'rinishlarida ham namoyon bo'lgan. Bularning har biri o'z tarixiy sabablariga ega edi. Jumladan, islomchilik va turkchilik chor hukumatining g'ayrirus va musulmon xalqlarga nisbatan olib borgan buyuk millatchilik siyosatiga javob sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, mahalliychilik (o'zbekchilik) 1918-1920-yillarda Turkistonda adabiy til masalasi yuzasidan avj olgan bahslar natijasida shakllangan.

Gap shundaki, Birinchi jahon urushi davrida Rossiyaga asir tushgan ko'plab usmonli turk zobitlari 1917-yil voqealaridan keyin Turkistonga kelib, maorif va madaniyat ishlarida faol ishtirok etganlar. Ular adabiy til masalasida Istanbul turkchasini faol targ'ib qilganlari sababli o'zbek ziyolilari orasida muayyan e'tirozlar yuzaga kelgan edi. Biroq mazkur qarashlarning har uchalasi ham XX asrning 20-yillari o'rtalariga kelib asta-sekin barham topdi.

Begali Qosimov XX asr o'zbek adabiyoti, ayniqsa, jadid adabiyoti bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borgan. U Fitrat shaxsini "Millatning ma'naviy bayroqdori", "Uyg'onish davrining fidoyisi" sifatida baholaydi. Olim o'z tadqiqotlarida Fitratning adabiy faoliyatini uch bosqichga ajratadi: 1) Istanbul davri (1909-1913), 2) Buxoro davri (1918-1923), 3) Toshkent davri (1923-1937). Ushbu davrlarda Fitrat millat uyg'onishi, ilm-ma'rifat, til, din, madaniyat va davlat mustaqilligi uchun kurash olib borgan.

Begali Qosimovning ilmiy, badiiy va ma'rifiy merosi Abdurauf Fitrat kabi jadidlarning ilmiy faoliyati hamda ta'lim-tarbiya rivojiga qo'shgan hissasini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Begali Qosimov 1942-yil 19-dekabrda Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanida tug'ilgan. U filologiya sohasida tahsil olib, keyinchalik adabiyotshunoslik ilmiga bag'ishlangan yetuk olim sifatida shakllandi. Doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi va professor ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi. 1999-yilda unga O'zbekiston Respublikasining fan arbobi faxriy unvoni berildi.

Uning pedagogik faoliyati O'zbekiston Milliy universitetida Milliy uyg'onish davri adabiyoti kafedrasini tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu ilmiy fidoyilikning yorqin namunasi hisoblanadi. Begali Qosimov o'z hayotini adabiyotshunoslikka bag'ishlab, mumtoz va milliy uyg'onish davri adabiyotini yangi bosqichga olib chiqdi. Uning ilmiy yondashuvlari zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida mustahkam ilmiy maktabning shakllanishiga xizmat qildi.

Milliy merosni sevuvchi olim sifatida u o'zbek xalqining boy adabiy va ma'naviy merosini nafaqat ilmiy jihatdan tadqiq etdi, balki uni yoshlarga yetkazish va milliy tarbiya jarayonida keng targ'ib qilish ishlariga ham katta hissa qo'shdi.

Fidoyi o'qituvchi va ustoz sifatida professor Qosimov ko'plab yosh olimlar, tadqiqotchilar hamda adabiyot ixlosmandlarini tarbiyalab, o'z ilmiy an'alarini davom ettiruvchi avlodni shakllantirdi. Ustozning mehribonligi va talabchanligi birdek e'tirof etilgan.

Yuksak insoniy fazilatlar egasi bo'lgan Begali Qosimov ilmiy faoliyat bilan bir qatorda halollik, kamtarlik va insonparvarlik fazilatlarini bilan ham ko'plarga ibrat bo'ldi. Uning asarlari nafaqat olimlar, balki keng jamoatchilik uchun ham qadri bo'lib, milliy adabiyotimizni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu bois Begali Qosimovning nomi o'zbek adabiyotshunosligi tarixida oltin harflar bilan bitilgan.

Begali Qosimovning ilmiy faoliyati bir necha asosiy yo'nalishlarda jamlangan. Jumladan, mumtoz adabiyot tadqiqotlarida u o'rta asrlar adabiy merosi va klassik matnshunoslik masalalarini chuqur o'rgandi, an'anaviy matnlarni tahlil qildi hamda ularning o'zbek adabiyoti rivojidadagi o'rnini haqida muhim ilmiy xulosalar berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shuningdek, milliy uyg'onish davri adabiyotini, jadidchilik harakati va uning namoyandalarini, milliy uyg'onish davri yozuvchilarining ijodiy merosini kompleks tarzda o'rganib, bu sohada ko'plab kitoblar yaratdi.

Begali Qosimov bir nechta darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi bo'lib, o'zbek adabiyoti ta'limiga amaliy va metodologik hissa qo'shgan.

Matnshunoslik va tarjima masalalari bo'yicha matnning strukturasi, til xususiyatlari, tarjima va o'tish jarayonlarini nazariy jihatdan tahlil qilgan ilmiy ishlar chop etdi.

Ushbu yo'nalishlarda muallifning 30 ga yaqin kitobi va 300 dan ortiq maqolalari nashr etilgan bo'lib, ular o'zbek adabiyotshunosligining turli qatlamlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Begali Qosimov asarlarida quyidagi ilmiy-uslubiy xususiyatlar kuzatiladi:

- 1. Tarkib va matn tahliliga metodik yondashuv.** Bunda muallif matnini faqat tarixiy jihatdan emas, balki semantik, stilistik va strukturaviy jihatdan ham tahlil qilish orqali yangi talqinlarni ishlab chiqdi.
- 2. Taqqoslovchi-tarixiy yondashuv.** Olim o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari bilan turkiy va boshqa mintaqaviy adabiyotlar o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatib, turli adabiy oqimlarning o'zaro ta'sirini o'rganishga alohida e'tibor qaratdi.
- 3. Nazariya va amaliyot uyg'unligi.** O'quv-uslubiy qo'llanmalarida nazariyadan amaliyotga muvaffaqiyatli o'tish usullarini taklif qildi. Bu esa adabiyot ta'limida yangi metodologik me'yor sifatida qabul qilindi.

Quyida muallifning ayrim muhim tadqiqotlari va monografik ishlari (tanlangan tahlil) haqida ma'lumot beriladi.

Begali Qosimovning dastlabki risolasi Mirmuhsin Shermuhamedov ijodiga bag'ishlangan bo'lib, unda ushbu shaxsiyat tarixiy-konseptual nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqilgan hamda uning o'zbek madaniyati taraqqiyotidagi o'rnini baholangan. Mazkur tadqiqot olimning keyingi mumtoz adabiyotga oid ilmiy qarashlari uchun poydevor vazifasini bajargan.

1990-yillardan boshlab muallif milliy uyg'onish davri (jadidchilik) adabiyotini tizimli o'rganish bo'yicha qator monografiyalar va ilmiy maqolalar yaratdi. Ushbu tadqiqotlar jadidchilik harakatining adabiy va ijtimoiy ta'sirini qayta baholashga, shuningdek, ta'lim amaliyotida mazkur davr ijodkorlari merosini o'rganishni kuchaytirishga xizmat qildi.

Muallifning darsliklari adabiyot fanini o'qitish metodikasi sohasida keng tarqaldi. U nazariy asoslarni amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lashga qaratilgan metodlarni ishlab chiqdi, bu esa uning pedagogik merosini keyingi avlodlarga yetkazishda muhim rol o'ynadi.

Begali Qosimov atrofida mustahkam ilmiy maktab shakllandi. Uning izdoshlari mumtoz adabiyot, jadidchilik tadqiqotlari va adabiyot o'qitish metodologiyasi bo'yicha izlanishlar olib bormoqdalar. U Milliy uyg'onish davri adabiyoti kafedrasini tashkil etib, uning faoliyatini yo'lga qo'ygani tufayli yangi avlod olimlari uchun samarali ilmiy makon yaratildi. Bu borada uning shogirdlarining ilmiy ishlarida ustozning metodologik tamoyillari yaqqol namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, Begali Qosimov "O'zbekiston Respublikasining fan arbobi" unvoniga sazovor bo'lgan hamda qator davlat va xalqaro mukofotlar bilan taqdirlangan. Uning ilmiy merosi va adabiy tahlil uslublari 1990-2000-yillarda keng e'tirof etildi, ko'plab ilmiy anjumanlar, xotira kechalari va ilmiy to'plamlar nashr etildi. Olim tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan xotira tadbirlari uning jamiyatdagi yuksak nufuzini yana bir bor tasdiqladi.

Olimning ishlari o'zbek madaniyati va adabiyotshunosligiga nafaqat ilmiy, balki ma'rifiy ta'sir ham ko'rsatdi. U adiblar ijodiy merosini o'rganish, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish va adabiyot o'qitish metodlarini takomillashtirish orqali milliy adabiy merosni asrash hamda yosh avlod tarbiyasiga xizmat qildi. Shuningdek, uning asarlari boshqa tillarga tarjima qilingan bo'lib, bu uning ilmiy qarashlari xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan ham e'tirof etilganidan dalolat beradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Begali Qosimovning ilmiy ishlari ko'plab ijobiy baholarga sazovor bo'lgan bo'lsa-da, zamonaviy talqinlarda uning ayrim yondashuvlari bilan bog'liq masalalar ham muhokama qilinmoqda. Jumladan, klassik matnlarni tahlil qilishda ayrim hollarda asarlarni tarixiy kontekstdan ko'ra idealizatsiya qilishga moyillik mavjudligi haqida fikr bildiruvchi tadqiqotchilar ham uchraydi. Shuningdek, jadidchilikka oid ayrim talqinlar zamonaviy tarixshunoslik metodlari asosida qayta ko'rib chiqilmoqda. Bu esa Begali Qosimov merosini yangi metodologik nuqtai nazardan tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur tanqidiy qarashlar olimning ilmiy merosini kamaytirmaydi, aksincha, kelgusidagi tadqiqotlar uchun yangi ilmiy savollarni shakllantiradi va ilmiy muloqotning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Begali Qosimov o'zbek adabiyotshunosligida alohida o'rin tutadi. Uning ilmiy merosi - mumtoz adabiyot, milliy uyg'onish davri tadqiqotlari hamda adabiyot o'qitish metodologiyasi sohasidagi ishlari - kelajak avlod tadqiqotchilari uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimov B. Milliy uyg'onish davri. - Toshkent: Toshkent nashriyoti, 2004. - B. 4.
2. O'roqova Sh.Sh. Begali Qosimov ilmiy izlanishlari asosida Abdurauf Fitrat ijodi tahlili // Science and Innovation in the Education System: International Scientific Online Conference. - B. 58.
3. Qosimov B. Milliy uyg'onish davri adabiyoti. - Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 1999.
4. Qosimov B. Adabiyot va ma'naviyat masalalari. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
5. Qosimov B. Tanlangan asarlar: 1-3 jild. - Toshkent: Akademya nashri, 2008.
6. Raxmonov A. Begali Qosimovning adabiyotshunoslikdagi o'rni // O'zbekiston filologiya jurnali. - 2015. - № 2. - B. 45-50.
7. O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UZA). Begali Qosimov - buyuk olim va ustoz [Elektron resurs]. - 2022. - Foydalanish tartibi: <https://uza.uz>
8. Ziyouz.com. Begali Qosimov hayoti va ijodi haqida [Elektron resurs]. - 2021. - Foydalanish tartibi: <https://www.ziyouz.com>
9. Qosimov B. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotini o'rganishning dolzarb masalalari [Elektron resurs]. - Foydalanish tartibi: <https://kh-davron.uz/kutubxona/jadidlar-kutubxona/begali-qosimov-milliy-uygonish-davri-ozbek-adabiyotini-organishning-dolzarb-masalalari.html>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.